

O'ZBEKISTON KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING VAZIFALARI, OBYEKTлари VA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUVI

Qurbonova Sitora Vahobjon qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

sitoraqurbonova982@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15697449>

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini mustaqil fan sifatida rivojlantirish, shuningdek, amaliyotda kompaniyalar boshqaruvining muhim bo'g'ini sifatida xalqaro standartlarga moslashtirish eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi buxgalteriya hisobi sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. So'nggi yillarda xalqaro standartlarga to'liq javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi.

Shuningdek, buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasining kengayib borishi, integratsiya jarayonlarining chuqurlashishi, qo'shma korxonalar tashkil etilishi, jahon moliya bozorlariga chiqish, sarmoya, ishchi kuchi va valutaning erkin harakatlanishi kabi omillar buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga moslashtirishni yanada dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» jamiyat hayoti barcha sohalari, jumladan, buxgalteriya hisobi sohasini yanada takomillashtirish uchun asosiy dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy natijalarni aniq aks ettirish, balki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, shaffoflik va ochiqlikni oshirish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tesis ishida aynan ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar, olib borilayotgan islohotlar natijalari va istiqboldagi vazifalar o'rganiladi.

Kalit so'zlar:

Buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, iqtisodiy islohotlar, boshqaruv hisobi, Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston iqtisodiyoti, moliyaviy shaffoflik, integratsiya jarayonlari, axborot texnologiyalari, qo'shma korxonalar, sarmoya jalb etish.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 6-moddasiga binoan, mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar, ularning respublika hududidagi va chet eldagi sho'ba korxonalari, vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida belgilangan. Buxgalteriya hisobi ushbu subyektlar faoliyatini to'liq aks ettiradi va nazorat qiladi.

Buxgalteriya hisobi orqali korxonalarining moddiy boyliklari va pul mablag'lari harakati doimiy ravishda kuzatib boriladi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq xarajatlar aniqlanadi, xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari hamda korxonaning umumiy mol-mulki to'g'risida ma'lumotlar shakllantiriladi. Buxgalteriya hisobi har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruv tizimida muhim o'rin tutib, uch asosiy vazifani bajaradi:

1. Axborot to'plash, umumlashtirish, guruhlash va taqdim etish;
2. Xo'jalik faoliyatini nazorat qilish;
3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos yaratish.

Mazkur funksiyalarni bajarishda moliyaviy hisobning turli usullari qo'llaniladi. Moliyaviy hisob har xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda, ularning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, turli yo'nalishlarda xizmat qiladi.


Buxgalteriya hisobining vazifalarini to'liq tushunish uchun avvalo uning asosiy obyektlari haqida tasavvurga ega bo'lish lozim. Ular to'rtta guruhga bo'linadi:

1. Korxonalar mablag'lari (resurslari) – bu mehnat vositalari, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari, tayyor mahsulotlar, ustav kapitali, turli fondlar, kelgusidagi xarajatlar va to'lovlar uchun zaxiralar, foyda hisobidan yaratilgan zaxiralar va boshqalar bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi.
2. Korxonalar faoliyatidagi asosiy jarayonlar – tovar-moddiy boyliklarni tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlarni, ish va xizmatlarni sotish, kapital qurilish va boshqa iqtisodiy jarayonlar.
3. Hisob-kitob munosabatlari – davlat byudjeti, yetkazib beruvchilar, xaridorlar, ishchilar va xizmatchilar, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hisoblashlar.
4. Moliyaviy natijalar – korxonaning daromadi, foyda yoki zarar ko'rinishidagi xo'jalik faoliyatining moliyaviy yakunlari.

Buxgalteriya hisobi obyektlarini o'rganish va ularni nazorat qilish orqali hisobning vazifalari amalga oshiriladi. Hozirgi davr talablari buxgalteriya hisobi oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, hisob-kitoblarda qat'iy bir xillikni ta'minlash, ishlab chiqarish topshiriqlari bajarilishini to'liq aks ettirish va soliq bazasini, shuningdek, byudjetga ajratmalarni to'g'ri hisoblash eng muhim talablar sifatida belgilangan.

Moliyaviy hisob ma'lumotlari jamiyatda keng miqyosda qo'llaniladi. Bu ma'lumotlardan foydalanuvchilar uchta asosiy guruhga bo'linadi: korxonalar boshqaruvchilari, moliyaviy manfaatdor shaxslar hamda moliyaviy manfaatdor bo'lmagan shaxslar. Har bir guruh o'zining manfaatlari va ehtiyojlariga qarab buxgalteriya hisobining aniq va haqqoniy ma'lumotlaridan foydalanadi.

Tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy ko'rsatkichlar



Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi tizimi nafaqat korxonada ichki boshqaruvi uchun, balki tashqi foydalanuvchilar — investorlar, moliya institutlari, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobi orqali korxonalar o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlash, faoliyat samaradorligini oshirish va iqtisodiy xavflarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bugungi globallashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlar bilan uyg'unlashib borishi, shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlashi zarur. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida va xorijiy sarmoyalarni jalb etishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimi har qanday korxonaning barqaror rivojlanishida va samarali boshqaruvida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Uning vazifalari — axborot yetkazish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashish orqali korxonaning iqtisodiy faoliyati to'liq va haqqoniy aks ettiriladi. O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar buxgalteriya hisobi tizimini yanada takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va ilg'or texnologiyalar bilan integratsiya qilishni talab etmoqda. Kelgusida buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini yanada mukammal tashkil etish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 13.04.2016 y. O'RQ-404-son. // Lex.uz huquqiy axborot portali.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

«2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi».

3. Normurodov Yo., Yusupov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2020.
4. Xo‘jayev B.X., Murodov T.X. Moliyaviy hisob. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. International Financial Reporting Standards (IFRS). IFRS Foundation. www.ifrs.org. (Murojaat qilingan sana: 2025-yil 10-iyun).
6. Qodirov A.A. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil. – Toshkent: “Sharq”, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari. www.stat.uz. (Murojaat qilingan sana: 2025-yil 5-iyun).
8. Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan. Guidelines on accounting reforms and international standards implementation. www.mf.uz. (Murojaat qilingan sana: 2025-yil 8-iyun).